

MA'NOVIY ZIDLIK UNING EVFEMIK VA DISFEMIK TARZDA BERILISHI**Bozorova Shahodat Ulug'bek qizi**

Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6589179>

ANNOTATSIYA. Maqolada so'zning muvofiq nutqiy vaziyat taqozosi bilan uzual ma'nosiga tamomila ters ma'noda namoyon bo'lishi haqida so'z yuritiladi. Muallif «maqtov» ma'noli so'zlarning evfemik yo'l bilan «tanbeh» ma'nosida, «tanbeh» ma'noli so'zlarning disfemik yo'l bilan «maqtov» ma'nosida voqelanish tomonlariga diqqat qaratadi. Kalit so'zlar: uzual ma'no, okkazional zid ma'no, evfemik ifoda, disfemik ifoda, antifrazis.

Kalit so'zlar: Evfemiya, Enantiosemiya, Disfemik, Kakofemizm uzual ma'no, okkazional zid ma'no, evfemik ifoda, disfemik ifoda, antifrazis.

Ma'lumki, bir so'z semantik strukturasi ikki qarama-qarshi ma'noning mavjud bo'lishi lingvistik adabiyotlarda enantiosemiya deb yuritiladi¹. Masalan, hozirgi o'zbek tilidagi tushmoq so'zining ishga tushmoq birikmasidagi «ishga qabul qilinmoq» va ishdan tushmoq birikmasidagi «lavoziydan bo'shamoq» ma'nolari bir so'zdagi o'zaro zid ma'nolardir. Mazkur hodisa so'z semantik taraqqiyoti natijasida yuzaga keladi va namoyon bo'lishiga ko'ra bir necha turlarga bo'linadi. Shulardan biri nutqiy enantiosemiya bo'lib, u so'zning muvofiq nutqiy vaziyatda uzual ma'nosiga nisbatan qaramaqarshi ma'noda voqelanishiga asoslanadi. Nutqiy enantiosemiya, ko'p hollarda, evfemik va disfemik ifodalar asosida ham yuzaga keladi. Quyida uning ana shu jihatlarini ko'rib o'tamiz.

Lingvistik adabiyotlardan ma'lumki, evfemiya ma'lum sabab larga ko'ra taqiqlangan yoki madaniy muloqot doirasidan chetda bo'lgan so'zning yumshatilgan, madaniy muloqot doirasiga xoslangan ifodasidir. Masalan, chayon so'zining taqiq tufayli otsiz, tug'moq so'zining madaniy muloqot talabi bilan ko'payishmoq tarzidagi yumshatilgan ifodasi evfemiyani yuzaga keltiradi.

Evfemiya antonimiya, omonimiya, sinonimiya va polisemiya singari hodisalar bilan o'zaro ma'noviy zidlik uning evfemik va disfemik tarzda berilishi Annotatsiya. Maqolada so'zning muvofiq nutqiy vaziyat taqozosi bilan uzual ma'nosiga tamomila ters ma'noda namoyon bo'lishi haqida so'z yuritiladi. Muallif «maqtov» ma'noli so'zlarning evfemik yo'l bilan «tanbeh» ma'nosida, «tanbeh» ma'noli so'zlarning disfemik yo'l bilan «maqtov» ma'nosida voqelanish tomonlariga



diqqat qaratadi. Yaqin munosabatda bo'lganidek, polisemiyaning alohida ko'rinishi bo'lgan enantiosemiya bilan ham ma'lum munosabatdorlikka ega, ular o'rtasida muayyan umumiyliklar mavjud. Bu haqda rus tilshunosi I.N.Gorelov ham enantiosemiya sub'ektiv munosabat ifodasi sifatida namoyon bo'lganda evfemiya teng kelib qolishini ta'kidlaydi. Shuningdek, evfemiya hodisasini pragmalingvistik kategoriya sifatida o'rgangan S.Xueysze va L.N.Saakyan singari tadqiqotchilar ham evfemiyaning enantiosemiya bilan yaqin jihatlari borligini e'tirof etgan. Bunga ko'ra, ushbu aloqadorlik so'zlovchi tomonidan nutqning eng zarur qismi atayin yashirin ifodalanganda yuzaga chiqdi. Shu orqali nutq sub'ektining istehzosi, norozi munosabati bildiriladi. Masalan, hozirgi o'zbek tilida so'zlashuvchilar nutqida tez-tez qo'llanilib turadigan Oyog'ingdan namuncha shirin hid kelyapti jumlasidagi okkazonal tag ma'nosining shirin so'zi bilan berilgan evfemik ifodasida enantiosemiya va evfemiya teng kelib qoladi. Bunda so'zlovchi o'zining tinglovchiga bo'lgan sub'ektiv munosabatini yumshatilgan holda ifoda etishi natijasida so'z uzual ma'nosiga mutlaqo qarama-qarshi bo'lgan ma'noda namoyon bo'lgan. Mazkur holatning yuzaga kelish sababini ikki omil asosida tushuntirish mumkin: 1) so'zlovchining nutq ob'ektiga bo'lgan norozi munosabatini ochiq va dag'al tarzda ifodalamay, madaniylik maqomi ostida berishni maqsad qilishi; 2) so'zlovchining nutqiy ta'sirchanlikka erishishni maqsad qilishi.

So'zning nutqiy ma'nosi asosida yuzaga keladigan evfemik enantiosemiya evfemiya hodisasining tabiatidan kelib chiqib, u yoki bu darajadagi qo'pol, dag'al tuyuladigan tushunchaning evfemik ifoda – yo'l bilan berilishidagina tutashadi, boshqa holatlarda esa bu aloqadorlik kuzatilmaydi. Masalan, yaxshi so'zi muvofiq nutqiy vaziyatda uzual ma'nosiga qaramaqarshi «yomon» ma'nosida namoyon bo'lsa ham unda evfemik munosabat mavjud emas. Yoki Bu safar Botirovning «jinoiyati» o'n bir yillik qamoq bilan «taqdirlangan» (T.Malik, «Shaytanat», 3 kitob) jumlasida ham so'zlovchi «jazolamoq» ma'nosini ifodalashda taqdirlamoq so'zidan foydalanib, uni enantiosemik ma'noda qo'llagan bo'lsa-da, unda dag'al tushunchani yumshatish belgisi yo'qligi tufayli uni evfemik enantiosemiya deb bo'lmaydi.

Evfemik enantiosemiyaning yuzaga kelishida belgi bildiruvchi so'zlar boshqa turkumdagi so'zlarga nisbatan ba'zi afzalliklarga ega, chunki ularning semantik strukturasiidagi biror narsa-hodisani ijobiy yoki salbiy tarzda baholash xususiyati so'zlovchi subyektiv munosabatining u yoki bu tomonini ko'rsatib turadi. Masalan, muattar so'zining «Umrijoningizga Xudo baraka bersin»

deb u yuzimdan, bu yuzimdan o'pdi. O'payotganda og'zimdanda kelgan «muattar» hiddan xiyol chimirildi-yu, sezdiradi (O'.Hoshimov, «So'qqabosh bevagina») jumlasidagi okkazonal ma'nosi yuqorida keltirganimiz shirin so'zi ifoda etgan xususiyatlarni ko'rsata oladi. Bunda ham so'zlovchi o'zining salbiy munosabatini bildirishda evfemik yo'ldan borgan, ya'ni fikrini dag'al shakldagi badbo'y yoki sassiq so'zi bilan emas, madaniy muloqot talabiga mos muattar so'zi orqali yetkazishni maqsad qilgan. Bu bilan nutqiy ta'sirchanlikka ham erishgan.

Evfemik enantiosemiya hozirgi o'zbek tilidagi «maqto'v» ma'noli bir qator so'zlarning «tanbeh» ma'nosida qo'llanishi bilan ham hosil bo'ladi. O'zbek tilshunosligida so'zlarning bu kabi zid ma'noda namoyon bo'lish jihatiga ilk bor tilshunos Said Usmonovning 1958 yilda e'lon qilingan «Antonimlar» maqolasida e'tibor qaratilgan edi. Tilshunos Usmonov o'zbek tilidagi qulluq, barakalla, balli kabi so'zlarning alohida vaziyatlarda qarama-qarshi ma'nolarni ifodalashini aytib, buni quyidagi misol asosida dalillagan edi: – Men bo'ri bo'ldimmi?! It!!! – Qulluq! (A.Qahhor, «Qo'shchinor chiroqlari»).

Bu jihat hozirgi o'zbek tilidagi azamat, tasanno, ofarin, yashang, qoyil so'zlariga ham xos. Aslida «maqto'v» ma'noli bo'lgan mazkur so'zlar muvofiq nutqiy vaziyatda «tanbeh» ma'nosida namoyon bo'ladi. Masalan: – Mening o'g'lim xo'-o'-p orzu-havasli chiqdi-da, baraka topkur! Yaqinda to'y qilaman deb, yap-yangi «Neksiya»sini sotib yubordi, azamat! – Mening jiyanimni aytmaysanmi? To'y qilaman deb, uy-joyini sotdi! Endi ko'chada yuribdi! (O'.Hoshimov, «Daftar hoshiyasidagi bitiklar»). Ushbu parchadagi azamat so'zining kontekst dan anglashiladigan tag ma'nosi «yaramas»ga teng.

Enantiosemiyaning evfemik tarz da voqelanishi so'z doirasidagina emas, frazeologik birliklar asosida ham yuz beradi. Frazeologik birlik semantik strukturasi xos obrazlilik, emotsionalekspressivlik kabi xususiyatlar ularning o'zaro munosabatdorligiga qulaylik yaratadi. Masalan, quyidagi she'riy parchada ham evfemik tag ma'no «maqto'v» ma'nosidagi bug'doyga to'lgur iborasining «tanbeh» ma'nosida namoyon bo'lishida kuzatiladi: Nega pishmasimdan o'roq solasan? Yashashni istayman bug'doylarday hur. Ertaga tilingni tishlab qolasan, Tushunsang-chi, uying bug'doyga to'lgur! (B.Fazliddin, «Sen qachon gullaysan»).

Enantiosemiya ba'zan disfemik tarzda ham ifodalanishi mumkin. Enantiosemiyaning disfemik yo'l bilan voqelanishi so'zlovchining aslida qo'pol, salbiy xarakterga ega bo'lgan so'zni nutqda

ijobiy ma'noda namoyon etishidir. Bunday munosabatning yuzaga kelishida so'kish va qarg'ish so'zlarining ishtiroki, ayniqsa, ahamiyatli.

Disfemik enantiosemiyaning namoyon bo'lishi, avvalo, kakofemizmlar bilan bog'liq bo'lib, bunda vulgar ifodalar muvofiq nutqiy vaziyatda uzual ma'nosiga nisbatan zid ma'noni anglatadi. Nutqiy vaziyat taqozosi bilan vulgar so'zning ijobiy ma'no kasb etishi kakofemizmnning semantikasini butunlay o'zgartirib yuboradi. Buning natijasida «so'kish, koyish» va «qarg'ish» munosabatli so'zlar asl ma'nolarini yo'qotib, tamoman zid «maqtash», «faxr etish» kabi ma'nolarni namoyon etadi. Masalan: Kutib oluvchilar orasidan qo'l silkib kelayotgan ajabtovur juvonnini u darrov tanidi. Avvalgidan ham yaxshi-ya kasofat! (E.A'zam, «Shovqin»). Yoki Ssenariy muallifi bo'lmish Farhod Ramazon «shu xontaxtachi yaltiroq bolani qo'yinglar», – deb boshida oyoq tiragan edi, dastlabki videosinovlarni nazardan o'tkazgach, ko'nmay iloji qolmadi: butunlay boshqa qiyofaga kirib, ko'ngildagi qahramonning o'zi bo'lib ketibdi, kasofat! (E.A'zam, «Shovqin»). Bunda salbiy baholi kasofat so'zi ijobiy bahoda namoyon bo'lgan. Mazkur nutq hodisasi yuzaga chiqqan paytda sub'ektiv munosabat yuklangan so'z, odatiy qo'llanishdan farqli ravishda, alohida intonatsiyaga ham ega bo'ladi.

Kakofemizmlarning nutqda ters ma'noda namoyon bo'lishi, ijodkorlar tomonidan stilistik priyom sifatida qo'llanishi asteizm hodisasini yuzaga keltiradi. Tilshunos Ye. Gritsenkoning fikricha, asteizm so'kish, qarg'ish so'zlarining «maqtov» ma'nosida, maqtov so'zlarining «tanbeh» ma'nosida kelishiga asoslanadi. Masalan, quyidagi parchada qo'llangan tentak so'zi asteizmnning yorqin ko'rinishidir: Faqat bu yurtning odamlari g'alati. Novvoy savatga nonini uyub qo'yadi-da, qo'shnisi bilan gap sotadi... Dehqon qovun to'la aravasini qarovsiz tashlab, choyxonada yonboshlab, ko'k choy ichadi. Zargarni aytmayisizmi, zargarni! Do'koniga qulf osishga aqli yetmaydi, tentak! Eshigini ip bilan bog'lab, peshinda machitga yuguradi (O'.Hoshimov, «So'qqabosh bevagina»). Tentak so'zi orqali yuzaga chiqqan okkazonal tag ma'no shu so'z o'rnida qo'llanishi lozim bo'lgan so'z ma'nosiga qaraganda ta'sir kuchi ortiq, sub'ektiv «yuki» aniq. Shu sababli so'zlovchi yoki ijodkorlar tez-tez asteizmga murojaat qilib turadilar.

Bu kabi so'zlar sirasiga go'rso'xta so'zini ham kiritish mumkin. Go'rso'xta kakofemizmi odatda o'ta qo'pol ma'no ifodasiga ega bo'lib, so'zlovchining salbiy munosabatini bildirish uchun xizmat qiladi: To'rttagina go'rso'xtani ushlab qamash qo'llaringdan kelmasa, nimalaringga kerilasanlar?!



(T.Malik, «Shaytanat», 3-kitob). Biroq quyidagi jumlada u anglatayotgan tushunchani salbiy deb bo'lmaydi: «Lochindek yigit», u bilan har qancha o'ynab-kulsang arziydi. Shu kunlarda rosayam to'lishib, chiroyli yigit bo'lib ketibdi, go'rso'xta (K.Yashin, «Hamza»).

Enantiosemiyaga doir so'nggi tadqiqotlarda ritorik enantiosemiya masalasi ham ko'tarilmoqda. Ayni masala yuzasidan tadqiqot olib borgan tadqiqotchi Ye.V.Markasovaning fikricha, ritorik enantiosemiya hozirgi dunyo tillarining barchasi uchun xos va u ikki xil tarzda voqelanadi. Biri erkalash ma'nosidagi so'zlarni nutqiy agressiya, ya'ni do'q-po'pisa bilan qarama-qarshi ma'noda qo'llash; ikkinchisi, o'ta qo'pol vulgar so'zlarni erkalash ma'nosida ishlatish. Ye.V.Markasova ritorik enantiosemiya deb atayotgan hodisa mohiyatan yuqorida ko'rsatib o'tilgan evfemik va disfemik enantiosemiyaga teng keladi. Yoki ularni umuman antifrazis maqomi ostida birlashtirish mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, enantiosemiyaning evfemik va disfemik tarzda namoyon bo'lishi so'zlovchining kommunikativ-situativ maqsadi asosida amalga oshadi. Mazkur jihatlarni namoyon etgan so'z o'zi mansub kontekst uchungina xos bo'ladi. So'zning ayni jihati til deb atalmish muhtasham hodisani aloqa vositasi degan qamrovdan chiqib, kamida pragmatik vazifa bajarishini ko'rsatadi.

Ушбу мақолада ўқув луғатларининг умумий луғатлардан нафақат ҳажми, балки ундаги сўзларнинг танланиш мезонлари, луғат қисмларининг таркиби, жойлашуви – мегаструктураси билан ҳам фарқланиши, синоним ўқув луғатлар луғат мақоласи таркибида лексикографик пометалар (турли қисқартмалар, белгилар)га кам ўрин берилганлиги муҳокама қилинади.¹

This article is dedicated to the research of Adjusted meanings of Moral-spiritual concept defining units in the Uzbek language. And also analyzed the semantic analysis of grammatical shape lexemes of specialized meaning and provide a corresponding recommendation for lexicographical practice in the Uzbek language is one of the actual challenges of linguistics as today's challenge.²

¹ Гуландом Мирханова. (2022). СИНОНИМ СЎЗЛАР ЎҚУВ ЛУҒАТИНИНГ УМУМИЙ ТУЗИЛИШИ. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 1(2), 172–178. Retrieved from <http://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/90>

² Gulbahor, T. (2016). Adjusted Meanings of Moral-Spiritual Concept Defining Units. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 5(7), 40-45.



Корпус лингвистикасида семантик разметка, унинг теглар тизими, тег категориялари, семантик теглаш муаммолари, кўпмаънолилик ва омонимлик муаммосини ечиш масаласига оид қатор тадқиқотлар вужудга келган.³

The article discusses the research methods of Uzbek language syntax. In Uzbek linguistics, syntactic phenomena have been studied in detail since the 1930s, and several syntactic theories have emerged in this regard.⁴

The article examines the first dictionary in the Turkish language Mahmud Kashgaris “Devonu lugotit turk” in terms of a dictionary in accordance with the traditions of world lexicography and argues that it is the first appearance of modern complex dictionaries in the Turkish (Uzbek) language.⁵

Now studying scientific heritage, socio-political activities and acquaintance youth charity of our above-stated ancestors is considered one of the main urgent objectives of the modern intellectuals.⁶

This article covers the main place of small business and business in today's market economy. Including scientifically analyzed the development of small business and business, and the legal basis, at this time financially support small business and business, the latter is amended and the rules for this branch of national legislation are added.⁷

Мамлакатимиз тараққийетининг янги босқичида жамият ҳаётининг асосий негизи бўлмиш оилалар барқарор муҳитини мустаҳкамлаш ва бу масалаларда хотин-қизларнинг ўрни ва аҳамияти ошириш долзарб аҳамият касб этмоқда. Юртимиз аҳолисининг тенг

³ Ахмедова, Д. (2020). Семантик разметка тизимида тег гуруҳлари. *Oriental Art and Culture*, (III), 440-444.

⁴ Ergashevna, Y. N. (2021). ON METHODS OF RESEARCH OF UZBEK LANGUAGE SYNTAX. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(11), 22-28.

⁵ Bakhriddinova, B. M. (2020). “DEVONU LUGOTIT TURK” AS A FIRST VIEW OF MODERN COMPLEX EDUCATIONAL DICTIONARIES. *Theoretical & Applied Science*, (4), 981-985.

⁶ Tolibjonovich, M. T. (2021). EASTERN RENAISSANCE AND ITS CULTURAL HERITAGE: THE VIEW OF FOREIGN RESEARCHERS. *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions*, 2(05), 211-215.

⁷ Tolibjonovich, Madumarov T., and Gulomjonov O. R. Ogli. "Lombard Microcredit Organization Its Concept and Its Importance Today." *JournalNX*, vol. 6, no. 10, 2020, pp. 109-111.

ярмига яқинроғини ташкил этадиган хотин-қизлар жамиятнинг барча соҳаларида самарали фаолият юритмоқда.⁸

Badiiy adabiyotning qamrov darajasi keng sanaladi. Zero undagi janrlarning har biri insonning kamoloti uchun xizmat qiladi.⁹

Ushbu maqolada vatanparvarlik va millatparvarlik kabi axloqiy tushunchalar, hamda ularning mazmun mohiyati Somerset Moem qalamiga mansub bo'lgan "Bo'ysunmagan" ("The Unconquered") deb nomlangan hikoyaning syujeti va bosh qahramonlarning xarakterini tahlil qilish orqali ochib beriladi¹⁰

The article examines the role of dictionaries and their content, and, in particular, defines the role of explanatory dictionaries, from their compilation to their semantic meaning. Examples of lexical units and their meanings are given. Attention is drawn to the structure of explanatory dictionaries as a constituent part of the dictionaries as a whole.¹¹

In this article are given the importance, role, types of the family in modern society. Its development from ancient times till present is widely described in this article.¹²

The widespread introduction of new pedagogical technologies in teaching students of higher educational institutions and the effective use of innovative technologies are the main support for improving the quality of education.¹³

⁸ Мадумарова Зиёдахон. (2022). ЯНГИЛАНАЁТГАН ЎЗБЕКИСТОНДА ГЕНДЕР МУАММОЛАРИНИ БАРТАРАФ ЭТИШДА АХЛОҚИЙ ҚАДРИЯТЛАРИНИНГ ЎРНИ. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6569712>

⁹ Oripova Kamola. (2022). O'ZBEK VA FRANSUZ TILLARIDAGI MAQOLLARDA JON KONSEPTINING IFODALANISHI. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 1(3), 398–408. Retrieved from <http://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/209>

¹⁰ Pulatova Sabina. (2022). VATANPARVARLIK AXLOQNING ASOSIY TUSHUNCHALARIDAN BIRI SIFATIDA. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 1(3), 357–368. Retrieved from <http://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/205>

¹¹ Bobomurodova, L. K. (2021). FEATURES OF THE COMPILATION OF MODERN EXPLANATORY DICTIONARIES.

¹² Nasriddinovich, A. A. (2020). THE FEATURES OF APPEARING FAMILY IN MODERN SOCIETY. *European science review*, (3-4), 69-72.

¹³ Jamoliddinovich, U. B. (2022). FUNDAMENTALS OF EDUCATION QUALITY IN HIGHER EDUCATION. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(01), 149-151.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Гуландом Мирханова. (2022). СИНОНИМ СЎЗЛАР ЎҚУВ ЛУФАТИНИНГ УМУМИЙ ТУЗИЛИШИ. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 1(2), 172–178. Retrieved from <http://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/90>
2. Gulbahor, T. (2016). Adjusted Meanings of Moral-Spiritual Concept Defining Units. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 5(7), 40-45.
3. Ахмедова, Д. (2020). Семантик разметка тизимида тег гуруҳлари. *Oriental Art and Culture*, (III), 440-444.
4. Ergashevna, Y. N. (2021). ON METHODS OF RESEARCH OF UZBEK LANGUAGE SYNTAX. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(11), 22-28.
5. Bakhridinova, B. M. (2020). "DEVONU LUGOTIT TURK" AS A FIRST VIEW OF MODERN COMPLEX EDUCATIONAL DICTIONARIES. *Theoretical & Applied Science*, (4), 981-985.
6. Tolibjonovich, M. T. (2021). EASTERN RENAISSANCE AND ITS CULTURAL HERITAGE: THE VIEW OF FOREIGN RESEARCHERS. *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions*, 2(05), 211-215.
7. Tolibjonovich, Madumarov T., and Gulomjonov O. R. Ogli. "Lombard Microcredit Organization Its Concept and Its Importance Today." *JournalNX*, vol. 6, no. 10, 2020, pp. 109-111.
8. Мадумарова Зиёдахон. (2022). ЯНГИЛАНАЁТГАН ЎЗБЕКИСТОНДА ГЕНДЕР МУАММОЛАРИНИ БАРТАРАФ ЭТИШДА АХЛОҚИЙ ҚАДРИЯТЛАРИНИНГ ЎРНИ. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6569712>
9. Oripova Kamola. (2022). O'ZBEK VA FRANSUZ TILLARIDAGI MAQOLLARDA JON KONSEPTINING IFODALANISHI. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 1(3), 398–408. Retrieved from <http://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/209>
10. Pulatova Sabina. (2022). VATANPARVARLIK AXLOQNING ASOSIY TUSHUNCHALARIDAN BIRI SIFATIDA. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 1(3), 357–368. Retrieved from <http://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/205>
11. Bobomurodova, L. K. (2021). FEATURES OF THE COMPILATION OF MODERN EXPLANATORY DICTIONARIES.
12. Nasriddinovich, A. A. (2020). THE FEATURES OF APPEARING FAMILY IN MODERN SOCIETY. *European science review*, (3-4), 69-72.
13. Jamoliddinovich, U. B. (2022). FUNDAMENTALS OF EDUCATION QUALITY IN HIGHER EDUCATION. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(01), 149-151.